

## IMPORTANCE OF POVERTY ELIMINATION IN UZBEKISTAN

A. Suyunov,

Teacher at the Karshi branch of the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers.

H. Kadyrov,

Student of the Karshi branch of the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers.

### **Annotation:**

People always try to live well and be happy. But human needs are limitless and resources are limited. People's needs continue to grow as their ability to pay increases. Material resources are declining. As far as the concepts of direct poverty and poverty are concerned, there is currently no generally accepted and agreed definition of the concepts of poverty or misery in the world. Each country describes itself on the basis of its own set of poverty criteria.

**Keywords:** Happiness - wealth, unhappiness - poverty, poor countries, the border of poverty.

Insonlar doimo yaxshi yashashga, baxtli bo'lishga harakat qiladilar. O'z oldilariga uzoqdan uzoq orzu-maqsadlar qiladilar. Baxtiyor yashash uchun albatta yaxshi ta'minot kerak. Xuddi shu maqsadda odamlar doimo o'zlarini goh u cho'qqa goh bu cho'qqa uradilar. Bir so'z bilan aytganda insonlar boy yashashga harakat qiladilar. Ammo inson boy bo'lmasa ham baxtiyor yashashi mumkinku! O'z navbatida davlat orttirgan hamma boylar ham baxt topmasligi mumkin. Hayotda hamma gap pulga kelib taqalganda hech narsa yordam bermay qolishi mumkin. Shunday qilib baxt- boylik, baxtsizlik – kambag'allik deyish mumkin. Ammo insonlarning ehtiyojlari cheksiz, resurslar esa cheklangan. Insonlar ehtiyojlari to'lov qobiliyati o'sgan sari o'sib boraveradi. Moddiy resurslar esa kamayib boradi.

Yuqorida insonlarni boy va kambag'al tabaqalarga ajratdik. Ammo yana bir tabaqa borki u kambag'allikdan ham ayanchliroq. Bu – qashshoqlikdir!

Aslida bu tushunchalarning me'yoriy mezoni bormi? Kim boy?, kim kambag'al?, kim qashshoq? Balki o'zini boy hisoblayotgan odam aslida o'ziga yanglish baho berayotgandir, o'zini g'arib va faqir hisoblab ,men

kambag'alman deyayotgan kishi noshukrlik qilayotgandir! Qashshoqlarchi? Keling quyida aynan mana shu tushunchalar to'g'risida mulohaza yuritamiz. Jahon mamlakatlari aholisining jon boshiga to'g'ri keluvchi real daromadlari va boshqa bir qancha ko'rsatkichlarga qarab 4 guruhga bo'linadi:

- Rivojlangan
- Rivojlanayotgan
- O'tish davridagi
- Qashshoq mamlakatlar

Bugungi kunda bizning respublikamiz ushbu guruhning qaysi biriga mansub? Tan olib aytish kerakki mustaqilligimizning dastlabki yillarda oxirgi toifadagi mamlakat edik. Ming shukrlar bo'lsinkim, qahramon xalqimizning fidokorona mehnatlari va muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdig'aniyevich Karimovning jonbozliklari evaziga bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi davlatga aylanib oldik! Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan 30 yil o'tib esa rivojlangan mamlakatlar izini quvadigan rivojlanayotgan mamlakatmiz.

Demakki, biz rivojlanish yo'liga o'tdik va bir necha yillardan so'ng "Rivojlangan mamlakat" maqomini qo'lga kiritsak ajab emas. "Rivojlanayotgan" va "Rivojlangan" mamlakatlarda esa "kambag'al" va "qashshoq" oilalar bo'lmasligi kerak!

Yurtimiz aholisining turmush darajasini oshirish hamda kambag'allikni bartaraf etish maqsadida Prezidentimiz – Shavkat Mirziyoyev ko'rsatmasiga binoan "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikka qarshi kurashish vazirligi tuzildi. Va, bu vazirlik "kambag'allikni qisqartirish" bo'yicha olib borilayotgan ishlarga boshchilik qilmoqda.

O'zbekiston tarixida ilk bor kambag'allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ko'tarilib mazkur mavzu ijtimoiy -iqtisodiy siyosatining asosiy kun tartibiga aylanadi.

Aholi o'rtasida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish ushbu muammoni hal etish mumkin, degan fikr mavjud. Bu – bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la hal etish imkonini bermaydi. Zero, kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rnlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy

siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil - bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. «Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak», — dedi davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bevosita kambag'allik va qashshoqlik tushunchalariga keladigan bo'lsak, hozirda jahonda kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umum qabul qilingan hamda kelishilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilanga n kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik- insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lган daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklavlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va tex ogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashga nisbatan aytiladi(BMTning " Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"dan).

Kambag'allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash i.koniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish immoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik - bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatidan chegaralanganligi, xavf-xatar oldida choraszizligi hamda nochorligi sanaladi (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining " Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma"sidan, 2017-yil Nyu-York, Jeneva).

Bundan Jahon Banki tomonidan 2015-yildagi 115 ta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilgan uslubiyotga ko'ra, barcha mamlakatlar uchun 2011-yildagi narxlarda xarid qobiliyati pariteti bo'yicha qashshoqlik


chegarasi 1,9, kambag'allik chegarasini esa mamlakatlar aholi daromadlarining past, o'rta va yuqori darajalaridan kelib chiqib 1.9; 3.2; 5.5 va 2.7 AQSh dollari etib belgilash tavsya etilgan.

Yuqoridagi ta'rif va uslublardan kelib chiqib, alohida qabul qilingan kambag'allikni aniqlash uslubiyoti asosida jami daromadi (yoki xarajati) belgilangan kambag'allik chegarasiga yetmagan aholi qatlamini kambag'al, hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyojlarini mutlaqo qondirish imkoniyati mutlaqo bo'lмаган qatlamni esa qashshoq aholi deb e'tirof etish tavsya etilgan.

Jahon amaliyotida kambag'allik chegarasini aniqlashning asosiy 4 ta: mutloq, nisbiy, moddiy deprivatsiya va ko'p o'lchamli usullari mavjud. Mazkur usullar mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvorligi, iqtisodiyotning rivojlanganlik darjasini hamda ichki imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Qator mamlakatlar milliy kambag'allik chegarasi sifatida mutlaq yoki nisbiy usuldan foydalanadi. Mutlaq kambag'allik chegarasi kishi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar qiymati orqali aniqlanadi. Jahon tajribasida mutlaq kambag'allik chegarasining o'rtacha yillik miqdorini aniqlash uchun aholi jon boshiga YaIMning 25 foizi qabul qilingan bo'lib, aksar rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Niderlandiya) mazkur ko'rsatkich nisbatan yuqoridir.

Kambag'allik chegarasini aniqlashning nisbiy usuli esa kishining daromadini jamiyatning qolgan a'zolariga nisbatan taqqoslash orqali aniqlanadi. (masalan, aholi daromadlari o'rtalanmasining 50 foizi, 60 foizi va h.k) Bu usuldan bir qancha davlatlar: Chernogoriya, Rossiya, Estoniya, Belarus, Vengriya kabi davlatlar foydalanadi. Bu davlatlarda aholi daromadlari mediana qiymatining 60 foizi kambag'allik chegarasi sifatida qabul qilingan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich mos ravishda Polshada 50, Ukrainada 75 foizni tashkil etadi. Xo'sh O'zbekistonda kambag'allik darajasini o'lchash mezoni qanday? Boy odam, O'rta hol odam, kambag'al odam deganda iqtisodiy ahvoli qanday darajadagi odamlarni tushunamiz?

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Jahon banki ekspertlari bilan birgalikda olib borilgan o'rganishlar natijasida mamlakatimizda kambag'allik darajasini aniqlash uchun oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlardan iborat bo'lgan hamda bir kishi uchun zarur bo'lgan minimal iste'mol xarajatlari qiymati tushunchasi kiritilmoqda



. Mazkur usulning o'ziga xosligi aholi real iste'moli tarkibi va xarajakteridan (consumption behavoir) kelib chiqadi. Ma'lumot uchun, FAO tomonidan O'zbekiston Respublikasida bir kishi o'rtacha kuniga 2100-2300 kkal oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish tavsiya etilgan. Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak: kambag'allikni qisqartirish uchun bиринчи navbatda ishsizlikni kamaytirish kerak. Avvalo, aholini zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish, ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyоqni uyg'otish zarur deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kambag'allikni o'lchash qiymati belgilanmagan. Biz boy odam, kambag'al odam va o'rta hol odam deb kimga ta'rif berilishini bilmaymiz. Shuning uchun deputatlar tomonidan ilgari surilgan "ikki yarim million oylik 5 bolali oilani ( Toshkent shahrida) ta'minlash uchun yetarli" yoki "kuniga besh ming olti yuz so'm ishlab topgan odam kambag'al emas" degan fikrlar aholi o'rtasida keskin norozilik uyg'otmoqda.

### **Foydalanaligan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-son Farmoni.
2. Sh.M. Mirziyoyev Kambag'allikni kamaytirish choralarini mavzusidagi nutqi, T.: -2020.
3. A.Ruziohunov "Boylik va kambag'allikning qanday farqi mavjud", nomli maqolasi T.: -2020

Kun.uz

Gazeta.uz

Fakit.uz

Ma'naviyat.uz